



## SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMASI HAQIDA LISONIY QARASHLAR

**Axmadjonova Mahfuza Egamqulovna**  
*Qo‘qon DPI o‘qituvchisi*

**Abdullajonova G,**  
**Mamadaliyeva U**  
*Qo‘qon DPI talabalari*

**Annotatsiya:** Grammatika so‘z tuzilishini va gap tuzilishini, demak, tilning Grammatik qurilishini o‘rgatadigan fandır. Grammatik qurilish tilning asoslaridan biridir: har bir tilning negizi uning grammatik qurilishi bilan leksikasidir. Tilshunolar tomonidan tilning grammatik sathi o‘rganilib tadqiq qilinarkan, tildagi sintaktik munosabatlar, sintaktik qurilish va turli sintaktik jarayonlar yuzasidan fikr-mulohazalar tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** Grammatika, sintaksis, so‘z birikmasi, so‘z, bitishuv, moslashuv, boshqaruv, tobe va hokim so‘z.

So‘z ham, so‘z birikmalari ham tilda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan birliklardir. So‘z va so‘z birikmalari o‘rtasida ko‘p jihatdan o‘xshashliklar mavjud. Bu o‘xshashliklar asosan quyidagilardan iboratdir: tilning asosini so‘zlar tashkil etadi. Lekin har bir so‘z konkret bir ma‘no ifodalagani bilan hali u tugal emas. So‘zlar bir-birlari bilan munosabatga kirishib, gap bo‘lgandagina tugal ma‘no ifodalaydilar va nutq shakliga kiradi. Lekin so‘zlar gap tarkibida xuddi munchoqni ipga tergani kabi birikmaydilar, ular gruppalashadi, so‘z birikmalari deb ataluvchi ma‘lum qurilish xarakteriga ega bo‘lgan so‘z gruppalari o‘zaro birikadi. So‘zlarning ana shunday birikuvlaridagina gap paydo bo‘ladi [Sharipov, 1918, 13]. Xullas, so‘zlar gap ichidagina yashaydilar va shundagina katta ahamiyatga ega bo‘ladilar. Bu jihatdan so‘z birikmalari ham so‘zlarga juda yaqin turadi. Ular ham nutqda, gapda yashaydilar. So‘zlar turlanadilar, tuslanadilar, o‘z formalarini o‘zgartiradilar. So‘zlarga xos bo‘lgan bu xususiyat so‘z birikmalarida ham saqlanadi. So‘z birikmalarining bosh so‘zi so‘z birikmasi tarkibida ham turlanish, tuslanish, forma o‘zgartirish xususiyatini saqlaydi.

Shu kabi o‘ziga xos nazariy qarashlar tilshunos olimlar R.Sayfullayeva, B.Mengliyevlar tomonidan e‘lon qilingan manbalarda ham o‘z aksini topadi [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 306]. SBda ma‘nolar o‘zaro munosabatga kirisharkan ekan, bunda ular yaxlitlanib, bir vujudga aylanib ketmaydi. Bir-biriga qancha yaqinlashmasin, baribir o‘z mustaqilliklarini saqlab qoladi. Masalan: toza havo birikmasida bir ma‘no ikkinchisiga muayyanlik kiritish uchun xizmat qiladi, lekin baribir bunda ikki tushuncha mavjud. Ikki tushuncha orasidagi munosabat ma‘lum bir me‘yor chizig‘idan o‘tsa, ular yaxlit tushunchaga aylanadi va bir butun holda yangi ma‘no anglatadi.



Soʻz birikmasi va gap Bu birliklarning har biri oʻziga xos grammatik qurilish va funksional xususiyatlarga ega boʻlgan sintaksisning oʻrganish obyektidir. Soʻz birikmalarining hosil boʻlishida gap emas, aksincha gap qurilishida soʻz birikmalari muhim rol oʻynaydi. Soʻz birikmasi tushuncha ifodalaydi. Gap esa fikr ifodalaydi.

Soʻz birikmalari hokim qismning qaysi soʻz turkumidan ekanligiga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) otli birikma; 2) feʼlli birikma; 3) sifatli birikma; 4) ravishli birikma; 5) modal soʻzli birikma. Otli birikmaning hokim soʻzi vazifasida ot, otlashgan soʻzlar keladi va u quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi: - Hokim qism vazifasida ot keladi: gʻayratli odam, samimiy inson, ezgu niyatli kishi. - Hokim qism sifatida olmosh keladi.

Soʻz birikmasining tuzilishi, tashkil etuvchi aʼzolarining oʻzaro munosabatini oʻrganish jarayonida birikishning ichki qonuniyati ochiladi. SBda bogʻlanish aʼzolaridan birining faolligi asosida emas, balki har ikki aʼzoning ham bir-biriga, avvalo, maʼnoviy, qolaversa, shakliy, joylashuv jihatdan moslashishi asosida yuz beradi. Chunki tobelanayotgan leksemaning birikish imkoniyati voqelanishga,

hokim aʼzoning biriktirish talabi esa qondirilishga intiladi. Soʻz birikmasidagi aʼzolarining goh bittasining (maktabga bormoq), goh ikkinchisining ham (maktabning bogʻi) grammatik shakllanishi asosida sintaktik aloqaning ikki xil – bir tomonlama aloqa, ikki tomonlama aloqa turini farqlash maʼqul emas. Unda bitishuvli (keng dala) birikmalarni hech qanday aloqasiz birikma deyishga toʻgʻri kelgan boʻlur edi. Yuqoridagi aloqaning ikki koʻrinishi bogʻlovchi vositaga qarab belgilangan, xolos. Soʻz birikmasida aloqa har doim ham ikki tomonlama. Soʻz birikmasi aʼzolarining ikki yoqlama-birikish imkoniyati (tobe aʼzo) va biriktirish talabi (hokim aʼzo) aloqadorligi bevosita aʼzolarining birikish-biriktirish qobiliyatiga asoslanadi. Bunda bogʻlangan har ikki soʻz bir-biriga muvofiqlashib, tobe soʻz shu aloqaga mos hokim soʻz formada keladi; ulardan birining oʻzgarishi bilan boshqasi ham oʻzgarib, shunga mos formaga oʻtadi – oʻz shakllanishini unga barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi. Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yoʻli bilan bogʻlanadi; shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe soʻz bilan hokim soʻz bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi koʻrsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi tuzilish strukturasi koʻra, grammatik munosabatga kirishishiga koʻra, baʼzi shakllarda soʻzga, baʼzi oʻrinlarda gapga tenglanishiga koʻra murakkab tuzilma hisoblanadi. Ular uchun ayni bir qolipni belgilab olish qiyin hisoblanadi. Shuningdek, soʻz birikmasi tarkibida oʻrganilayotgan nomli birikmalarni ham qayta koʻrib chiqish



Bir soʻz bilan aytganda, soʻz birikmasi tasnifi va uni oʻrganish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Hojiyev A. Oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari. – Toshkent: "Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali", 2007. 3-4 – betlar
2. Nurmonov A., Sarimsoqov B. Til sistemasida soʻzlarning oʻrni va soʻzlarni turkumlarga ajratish, 1999.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. Toshkent, 2006.
4. Yigitaliyeva, S., & Yoʻldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI OʻQITISHNING NAZARIY MASALALARI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(8), 41-44.
5. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. Mug'allim.
6. Келдиёрова, Г. С. (2021). Язык и стиль Эркина Вахидова. Молодой ученый, (41), 40-42.

